O‘ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA’LIM: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Xakimova Farangis Abdualimovna, GulDPI “Pedagogika” fakulteti, “Aniq fanlar” kafedrasi, informatika fani o‘qituvchisi.
e-mail: xakimovafarangis@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda masofaviy ta’limning rivojlanishi, uning imkoniyatlari va muammolari tahlil qilinadi. Imkoniyatlar qatorida keng qamrov, harajatlarning kamayishi, moslashuvchan ta’lim va texnologik rivojlanish kabi jihatlar mavjud. Ammo, texnologik infratuzilmaning yetishmasligi, o‘qituvchilarning tayyorgarligi, sifat nazorati va talabalar motivatsiyasi kabi muammolar ham mavjud. Maqolada masofaviy ta’lim bo‘yicha xalqaro tajriba ko‘rib chiqilib, infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilarni tayyorlash va ta’lim resurslarini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, texnologik infratuzilma, o‘qituvchilarni tayyorlash, talabalar motivatsiyasi, ta’lim resurslari;

ДИСТАНЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ

Абстракт. Данная статья исследует развитие дистанционного образования в Узбекистане, рассматривая как его возможности, так и проблемы. Возможности включают в себя расширение доступа, снижение затрат, гибкость и технологический прогресс. Однако существуют такие проблемы, как недостаточная технологическая инфраструктура, неподготовленность преподавателей, вопросы контроля качества и мотивации студентов. Статья также анализирует международный опыт дистанционного обучения и предлагает рекомендации для улучшения системы в Узбекистане, такие как развитие инфраструктуры, подготовка преподавателей и улучшение качества образовательных ресурсов.

Ключевые слова: Дистанционное обучение, технологическая инфраструктура, подготовка преподавателей, мотивация студентов, образовательные ресурсы;

DISTANCE EDUCATION IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES AND PROBLEMS

Abstract. This article explores the development of distance education in Uzbekistan, examining both its potential opportunities and the challenges it faces. The opportunities include increased accessibility, reduced costs, flexibility, and technological advancements. However, challenges such as inadequate technological infrastructure, lack of teacher preparedness, quality control, and student motivation persist. The article also reviews international practices in distance education and offers recommendations for improving the system in Uzbekistan, including infrastructure development, teacher training, and enhancing the quality of educational resources.

Keywords: Distance education, technological infrastructure, teacher training, student motivation, educational resources;

Kirish. Globalizatsiya jarayonlari, texnologiyaning rivojlanishi va axborot-kommunikatsiya vositalarining keng qo‘llanilishi ta’lim sohasida ham tub o‘zgarishlar kiritdi. Ayniqsa, masofaviy ta’limning rivoji zamonaviy o‘quv tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. O‘zbekistonda ham masofaviy ta’lim so‘nggi yillarda muhim rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekistonda masofaviy ta’lim imkoniyatlari va muammolari ilmiy asoslangan holda tahlil qilinadi.

Masofaviy ta’limning imkoniyatlari. Masofaviy ta’lim uslubi o‘qitishning yangicha zamonaviy shakli bo‘lib, u tinglovchi o‘quvchining mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil bilim olishga, izlanishga, fikrlashga o‘rgatadi. Masofaviy ta’limning afzalligi shundaki, unda har kim o‘ziga qulay vaqtda, qulay joyda, qulay muhitda bilim olishi mumkin. Shu tufayli ushbu tizim bugungi kunda dunyoda keng ommalashmoqda.

Masofaviy ta’lim – o‘quv jarayonining maqsadi, mazmuni, uslublari, o‘qitish vositalari va internet texnologiyalari yordamida tinglovchi hamda o‘qituvchilarning masofadan turib, interfaol muloqot qilish jarayoni hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoda ko‘pgina OTMlar, yirik korxonalar mutaxassislar malakasini oshirishda ushbu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab pul mablag‘larini tejamoqda.

Shuningdek, masofaviy ta’limning tashkiliy-iqtisodiy afzalliklari ham mavjud bo‘lib, masalan, o‘qitish uchun sinflar, doskalar, stollar va boshqa o‘quv qurollari zarur emas. Moliyaviy xarajatlar asosan o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlash hamda internet trafik uchun sarflanadi. Tabiiyki bu tizim samarasida xarajatlar kamayadi. O‘quv-uslubiy materiallar qanchalik tushunarli va batafsil bo‘lsa, shunchalik o‘quvchiga foydali bo‘ladi. Bu o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi onlayn dars jarayonidir. Bunday darslar uchun avvalo kommunikatsiya, masofaviy ta’lim uslubiy materiallari, elektron va odatdagi darsliklar, audio va video darsliklar, onlayn darslar (internet sahifa) elektron kutubxonalar, testlar, multimedia elektron darsliklar va, albatta, internetga ulangan kompyuter kerak bo‘ladi. Bunday ta’limda o‘quvchi har kuni ta’lim muassasasiga borishi shart emas. Shu bilan birga bu tizim vositasida salomatligi cheklanganlar, uzoq hududlarda yashovchi bolalar, hatto mahkumlar bilan birga bo‘lib turgan bolalar ham ta’lim olishi mumkin.

Metodologiya. Kattalarga esa masofaviy ta’limda o‘z mehnat faoliyatidan ajralmagan holda ta’lim olish va malaka oshirishlariga imkoniyat yaratiladi. Bundan tashqari, masofadan turib o‘qiganda bir necha kurslarda bir vaqtning o‘zida ta’lim olish imkoniyati mavjud.

Tadqiqotlarda aniqlanishicha masofaviy ta’lim an’anaviy ta’limdan aslo qolishmaydi. Balki samarasiga ko‘ra ustunlik jihatlari ham bor. Negaki, o‘quv materialining asosiy qismini o‘quvchi o‘zi mustaqil o‘qib-o‘rganadi. Bu o‘tilgan mavzularni puxta o‘zlashtirish va eslab qolishga yordam beradi. Buning ustiga darslarni yangi texnologiyalar vositasida o‘qish tinglovchii uchun qiziqarli va mazmunli bo‘ladi.

Bunday ta’lim tizimida darsliklar, qo‘llanmalar yetishmasligi kabi muammolar bo‘lmaydi. O‘quvchi o‘quv materialini elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoq orqali qabul qilib oladi. Shu bilan birga ma’lum saytlarga obuna bo‘lishi, ma’lumotlar bazasiga kirib, o‘ziga kerakli axborotlarni olishi mumkin.

Masofaviy ta’limning yana bir afzalligi uning arzonligidir. Jumladan o‘qishga borish-kelishga, tarnsportga pul sarflanmaydi. Chet elda o‘qish uchun esa viza va xorijiy pasport ham talab qilinmaydi.

Masofaviy ta’lim bugungi kunda O‘zbekistonda katta qiziqish bilan qabul qilinmoqda. Buning bir necha sabablarini ko‘rsatish mumkin:

Keng qamrov: Masofaviy ta’limning eng katta afzalligi uning geografik joylashuvga bog‘liq emasligidir. O‘zbekiston hududi keng, qishloq joylarida ham yashovchi talabalar uchun oliy ta’limga yetishish imkoniyatlarini kengaytiradi. Masofaviy ta’limda talabalar darslarni internet orqali istalgan joydan kuzatib borishlari mumkin.

1. Harajatlarning kamayishi: An’anaviy ta’limda talabalar uchun o‘quv dargohlariga qatnash harajatlari, yashash joyi va boshqa xarajatlar mavjud. Masofaviy ta’lim bunday harajatlarni kamaytirib, oila byudjetiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

2. Moslashuvchan ta’lim jarayoni: Masofaviy ta’lim talabalar uchun moslashuvchan o‘quv rejimlarini taqdim etadi. Talabalar darslarni o‘zlari uchun qulay bo‘lgan vaqt va joyda kuzatishlari mumkin, bu esa ish va o‘qishni birgalikda olib borishga imkon beradi.

3. Texnologik rivojlanish: O‘zbekistonning ta’lim tizimida texnologik taraqqiyotning qo‘llanilishi yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Interaktiv darslar, videomateriallar, onlayn testlar va boshqa zamonaviy vositalar ta’limning sifatini oshirishda yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Masofaviy ta’limning muammolari. O‘zbekistonda masofaviy ta’lim jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, u bir qator muammolar bilan duch kelmoqda:

1. Texnologik infratuzilmaning yetishmasligi: O‘zbekistonning barcha hududlari, ayniqsa, qishloq joylarda internet tezligi va sifati talab qilingan darajada emas. Bu esa masofaviy ta’lim jarayonida jiddiy to‘siqlarni keltirib chiqaradi. Internet imkoniyatlari yetarli bo‘lmagan joylarda talabalarning o‘quv materiallarini vaqtida olish va ularga mos ravishda javob berish imkoniyati cheklangan.

2. O‘qituvchilarning malakasi: Masofaviy ta’lim sifatli bo‘lishi uchun o‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni yaxshi bilishlari lozim. Ko‘p hollarda esa o‘qituvchilar masofaviy ta’lim uchun yetarli darajada tayyor emasligi kuzatiladi. Bu esa dars jarayonlarining sifati va talabalar bilan samarali aloqani yo‘qotishiga olib kelishi mumkin.

3. Sifat nazorati va baholash tizimi: Masofaviy ta’limda talabalar bilimini baholash masalasi murakkab sanaladi. Test sinovlari yoki nazorat ishlarini o‘tkazishning samarali usullari ishlab chiqilmaganligi, aldov holatlarini aniqlash qiyin bo‘lishi kabi omillar muammo keltirib chiqaradi.

4. Talabalar faolligi va motivatsiyasi: Masofaviy ta’limda talabalar o‘z-o‘zini boshqarishni o‘rganishi lozim. An’anaviy sinfdagi tartib yo‘qligi, bevosita nazoratning cheklangani talabalar faolligi va motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, ko‘plab talabalar o‘quv jarayonidan ortda qolishi yoki darslarni e’tiborsiz o‘tkazib yuborishlari mumkin.

Masofaviy ta’limning amalga oshirilishida xalqaro tajriba. Masofaviy ta’limning xalqaro tajribasini o‘rganish, O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Xususan, AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlar masofaviy ta’limni uzoq yillardan beri qo‘llab kelmoqda. Bu davlatlarda masofaviy ta’lim uchun maxsus platformalar va ta’lim resurslari mavjud. Ularda ta’lim jarayonida talabalar o‘z bilimlarini oshirish uchun maxsus dasturlar, videokurslar va virtual laboratoriyalardan foydalanish imkoniga ega bo‘lishadi. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun kuchli texnologik platforma va sifatli o‘quv materiallari bilan ta’minlanishi lozim. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun ham maxsus treninglar tashkil etilishi talab qilinadi.

O‘zbekistonda masofaviy ta’limning rivojlanishi uchun tavsiyalar. O‘zbekistonda masofaviy ta’limni yanada samarali rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin:

a) Infratuzilmani rivojlantirish: Avvalo, mamlakat bo‘ylab yuqori tezlikdagi internet tarmog‘ini kengaytirish lozim. Ayniqsa, qishloq joylarda internet infratuzilmasini kuchaytirish masofaviy ta’limning ommalashishida muhim rol o‘ynaydi.

b) O‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash: Masofaviy ta’limning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning malakasiga bog‘liq. Shuning uchun o‘qituvchilar uchun maxsus tayyorgarlik dasturlarini joriy qilish zarur. Bu dasturlar texnologiyalardan samarali foydalanish, onlayn darslar o‘tish usullarini o‘rgatishni o‘z ichiga olishi lozim.

c) Sifatli ta’lim resurslarini yaratish: Masofaviy ta’lim uchun interaktiv, qiziqarli va sifatli ta’lim materiallarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu videodarslar, onlayn laboratoriyalar, test sinovlari va boshqa ta’lim resurslari bo‘lishi mumkin.

d) Motivatsiya tizimini kuchaytirish: Talabalarni o‘z-o‘zini boshqarish va motivatsiyani oshirish uchun maxsus rag‘batlantiruvchi dasturlar va metodlar ishlab chiqilishi lozim. Bu talabalarni o‘z vaqtida darslarga qatnashishini va ular uchun ta’lim jarayoni qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.

e) Huquqiy asoslarni mustahkamlash: Masofaviy ta’limning qonuniy asoslarini mustahkamlash, ta’lim sifatini nazorat qilish tizimlarini rivojlantirish ham dolzarb masala sanaladi.

Xulosa. O‘zbekistonda masofaviy ta’lim jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, u hali bir qator muammolar bilan duch kelmoqda. Bu muammolar texnologik infratuzilmaning zaifligi, o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi va talabalar motivatsiyasi bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, masofaviy ta’lim imkoniyatlari ham

beqiyosdir, chunki u ta’lim jarayonini kengroq qamrab olish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Kelajakda masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish uchun infratuzilmani yaxshilash, o‘qituvchilarni tayyorlash va sifatli ta’lim resurslarini yaratish ustuvor vazifalardan bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2018.
2. Xudayberganova S. Masofaviy ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlari. O‘zbekiston ta’lim tizimi jurnali, 12(4). 2020. – B. 45-56.
3. Usmonov M. Ta’lim texnologiyalari va innovatsiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2019.
4. Nabiyev O. O‘zbekistonda ta’limning globalizatsiya sharoitidagi rivoji. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim vazirligi. 2017.
5. Qosimov, D. Ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayonlari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti. 2021.
6. Salomov I. “Masofaviy ta’lim: Imkoniyatlar va muammolar”. O‘zbekiston Milliy ta’lim portali. 2020. https://edu.uz
7. Abdurashidova N. “O‘zbekiston ta’lim tizimida masofaviy o‘qitishning roli va ahamiyati”. Elektron ilmiy jurnal, 7(3). 2021. – B. 34-42. http://ejournal.uz
8. Sharipov R. “Masofaviy ta’limning yangi texnologiyalari va uslublari”. O‘zbekiston Innovatsiyalar agentligi sayti. 2022. https://innovation.uz